

TARIXIY BILIMLAR VA JAMIYATNING MA'RIFIY TARAQQIYOTI: O'QITISHNING SAMARADORLIGI

Narmanov Feruz Asfandiyorovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ma'lumki, tarix fani jamiyat bilan uzviy va chambarchas holda taraqqiy etib rivojlanib keladi. Mazkur maqolada tarix fanining ahamiyati, uni o'qitish masalalari, Yangi O'zbekiston sharoitida tarix fani va uni o'qitish hamda tadqiq qilishga bo'lgan munosabat, tarix fanining ma'rifatli shaxsni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalar ilmiy va maxsus adabiyotlar tahlili asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarix fani, taraqqiyot strategiyasi, ma'rifati jamiyat, ma'rifatli shaxs, Murojaatnoma, milliy tarix, tarixiy tafakkur, Uchinchi Renessans, ma'naviy taraqqiyot, ta'lim islohotlari.

HISTORICAL KNOWLEDGE AND THE EDUCATIONAL DEVELOPMENT OF SOCIETY: THE EFFECTIVENESS OF TEACHING

Abstract: It is well known that the discipline of history has developed in close and inseparable connection with society. This article examines the significance of historical science, issues related to its teaching, the role and attitude toward history education and research in the context of New Uzbekistan, and the importance of history in fostering enlightened and morally responsible individuals. These issues are analyzed based on a review of scientific and specialized literature.

Keywords: historical science, development strategy, enlightened society, enlightened individual, Presidential Address, national history, historical thinking, Third Renaissance, spiritual development, educational reforms.

ИСТОРИЧЕСКИЕ ЗНАНИЯ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЕ РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА: ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ

Аннотация: Известно, что историческая наука развивалась в тесной и неразрывной связи с обществом. В данной статье рассматриваются значение исторической науки, вопросы её преподавания, роль и отношение к обучению и исследованию истории в условиях Нового Узбекистана, а также значение истории в воспитании образованной и морально зрелой личности. Вопросы освещены на основе анализа научной и специальной литературы.

Ключевые слова: историческая наука, стратегия развития, просвещённое общество, образованная личность, Обращение Президента, национальная история, историческое мышление, Третье Возрождение, духовное развитие, образовательные реформы.

Tarixdan ma'lumki, jamiyatdagi kishilar ongi va tafakkuri shakllanishi va rivojida tarix fani va uni o'qitish asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugun mamlakatimizda ta'lim tizimi taraqqiyoti o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu jarayon ta'lim bosqichlarida uzviylikni ta'minlash, ta'limning turli bosqichlari uchun yaratilayotgan o'quv-materiallarida ham aks etadi. Mustaqillik yillarida milliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy fanlarni o'qitish tizimini takomillashtirish mamlakat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan salohiyatli, ma'rifat bilan sug'orilgan kadrlar yetishib chiqishi uchun ham xizmat qiladi.

Uchinchi Renessansning mustahkam poydevori yaratilayotgan Yangi O'zbekistonda ham tarix fanini o'rganish va o'qitish jarayonlari yangi bosqichga qadam qo'ydi. 2018-yil 28-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Milliy o'zligimizni anglash uchun Vatanimizning qadimiy va boy tarixinni o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini jonlantirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim"-deya ta'kidlagan edi [7].

Davlat rahbari tomonidan mamlakatimiz tarixiga bunday bahoning berilishining o'ziyiq tarixni o'rganish jarayonida uni turli mafkuralardan xoli, xalqimizning boy tarixidagi yutuq hamda kamchiliklarni xolisona o'rganish orqali uni yosh avlod qalbi va tafakkuriga singdirishdek muhim vazifani ham belgilab bergandi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2021-yilning yanvarida Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida ta'kidlangan "Milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"ligi [4.] haqidagi fikrlari masalaning nechog'li dolzab yekanligidan dalolatdir.

Tarix fanining mamlakat va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatining yuqoriligini inobatga olgan holda bugun mamlakatimizda tariximizni milliy ruhda yaratish tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda. Bu ayniqsa, asosiy mazmuni O'zbekistonda tarix fani sohasi joriy holatining tanqidiy tahlili va mavjud muammolar, ilm-fanni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya tizimi, axborot makoni bilan uzviy bog'liqligini samarali yo'lga qo'yish talablaridan kelib chiqib, ilg'or milliy va jahon tajribasini inobatga olgan holda, bosh maqsadi, vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishga qaratilgan "O'zbekistonda 2021-2030 yillarda tarix fanini rivojlantirish konsepsiyasi" loyihasining yangi ishlab chiqilishi va keng jamoatchilik hamda tarixchi olimlar muhokamasiga taqdim etilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Masalaning nihoyatda dolzarbligi va ahamiyatining yuqoriligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvarida e'lon qilingan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" PF-60-sonli farmonda ham o'z aksini topdi [3].

Farmonning “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” deb nomlangan V-bo’limi 77-maqsadi esa bevosita “O’zbekiston tarixini o’rganish va targ’ib qilishni yanada rivojlantirish” deb nomlanib mamlakatimizda tarix fani sohasini rivojlantirish, uni butunlay yangicha asosda va tizimli ravishda amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa O’zbekistonda tarix fanini o’qitish uni bugungi kun talablari asosida yosh avlodga yetkazib berishga qaratilgan tadbirlar va tarixni xolisona o’rganish, pirovard maqsad “Yangi O’zbekiston – ma’rifatli jamiyat” [2] konsepsiyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Ta’lim eng muhim ijtimoiy institut sifatida shaxsning jamiyat rivojidadagi o’rni va rolini belgilaydi. Jamiyat taraqqiyotida zamonaviy fanlar bilan birga tarixiy bilimlarni o’qitish masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu shundan dalolat beradiki, asosiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vazifalarni hal etish bilan birga tarixiy taraqqiyot bosqichida O’zbekiston hududida tarixiy bilimlarni o’qitish va o’rganish masalalarining hal etilishi, uning yo’lga qo’yilishi va uning mazmun-mohiyati tarix fani misolida muhim jihatlarga ega.

Ma’lumki, sovet hokimiyati yillarida tarix faniga mafkuraviy jihatdan baho berilishi natijasida fanni o’rganish, tarixiy tadqiqotlar metodologiyasi va amaliyotiga nisbatan bir qator cheklovlar belgilangan edi. Natijada qattiq mafkuraviy nazorat sovet davlati tarkibida bo’lgan hududlarda ham iste’dodli tarix tadqiqotchilari va keng tarixiy dunyoqarashga ega bo’lgan kishilarning tarix fanini o’rganish tizimidan siqib chiqarilishiga olib keldi. Akademik A.Asqarov ta’biri bilan aytganda, tarix fani sovet imperiyasi davrida totalitar tuzumining nazariy asoschilari va bolsheviklar partiyasi mafkurasining mankurt quroli bo’lib keldi [5.24].

Sovet hokimiyati hukmronligi paytdayoq ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga davlat tomonidan ajratiladigan mablag’ning «qoldiq» prinsipiga amal qilinishi hukmron mavqega ega bo’lgan. Bu ayniqsa O’rta Osiyo mahalliy aholisi ta’limi sohasida yaqqol ko’zga tashlanadi. Ittifoqning partiya-sovet rahbariyati tomonidan maktablar va boshqa o’quv yurtlarida ta’limning rus tilida olib borilishiga bo’lgan xayrixohlik ustunligi aniq ko’rinib turibdi. Bunda mahalliy aholi, avvalo milliy ziyolilarning dunyoviy bilimlarga intilishlari hisobga olinmagan yoki rasmiyat yuzasidangina ba’zi jihatlari hisobga olingan xolos [8. 177.].

Ya’ni O’zbekistonning yaqin o’tmishida sodir bo’lgan tarixiy jarayonlar o’sha davrda tarix fanining zamon talabidan kelib chiqqan holda soxtalashtirilganligini, haqiqiy tarixni bilishga va o’qishga yo’l qo’yilmaganligini ko’rsatib turadi. Hozirgi kunda esa tarix ta’limining amaldagi joriy holati va to’plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma’lum bo’ladi. Tarixning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilash, “Raqamli O’zbekiston – 2030” [1] dasturiga ko’ra tarix fanini o’qitishni modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg’or texnologiyalarni joriy etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Tarix ta’limida “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g’oyasi mazmun-mohiyatini o’quvchilarga singdirish tarix ta’limini rivojlantirishning strategik maqsadlaridan hisoblanadi. Tarix ta’limini raqobatbardosh kadrlar bilan ta’minlash, zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, chuqur bilimli va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini

egallaganlik jihatidan rivojlantirish; bitiruvchilarda dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi tarixiy bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakatimizda tarixni milliy ruh bilan yaratish va o‘rganish bosqichi boshlandi. Bu esa jamiyatdagi har bir shaxsdan O‘zbekistonning nafaqat yaqin o‘tmishini o‘rganish balki uning turli bosqichlari haqida ham yetarlicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish vazifasini qo‘yadi. Mazkur vazifalarning bajarilishi jamiyatda ma‘rifatli kishilar sonining ortishiga, har bir shaxsda o‘zining tarixi va o‘tmishiga nisbatan vorisiylik tuyg‘ularining mustahkamllanishi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.
2. “Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat” // Халқ сўзи.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” PF-60 sonli Farmoni.
4. Азамат Зиё. Янги Ўзбекистонда миллий тарих ва миллий рух // Халқ сўзи. 2021-йил. 24-июль.
5. Асқаров А. Ўзбекистон мустақиллиги шароитида тарих фанининг вазифалари // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент: Фан, 1992. 7-8 сонлар.
6. Зиёев Ҳ. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Тошкент: Гофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018-йил Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
8. Ҳасанов Б.В. Ўзбекистонда халқ таълими ҳамда фан соҳасида совет сиёсати ва миллий зиёлилар (20-йиллар иккинчи ярми — 50-йиллар бошлари). Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар: Даврий тўплам, № 2 // Таҳрир хайъати: Д.Алимова (Масъул муҳаррир) ва бошқ. – Т.: Шарқ, 1999. – 177.